

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

KAVSAR TURDIYEVA SHE'RIYATIDA TIL MA'NAVIYATI MUAMMOSINING BADIY TALQINI

Xurshida Xamrakulova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada Kavсар Turdiyevaning she'riyatidagi obrazli tafakkur, bolalarga xos lirik qahramon yaratish mahorati haqida mulohazalar keltirilgan. So'z turkumlari haqidagi she'rlarining tahlili keltirilgan. Shoiraning asarlari ilmiy tafakkurni badiiy tafakkur andozalari bilan ifodalashning yorqin namunasi sifatida.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, tafakkur, ona tili grammatikasini, ilmiy she'rlar, obrazli ta'riflar

Аннотация. В статье содержатся комментарии об образном мышлении в поэзии Кавсар Турдиевой, свойственном детям мастерстве создания лирического героя. Представлен анализ его стихотворений о группах слов. Произведения поэта как яркий пример выражения научного мышления с помощью моделей художественного мышления.

Ключевые слова: детская литература, мышление, грамматика родного языка, научные стихи, образные описания.

Annotation. The article contains comments about figurative thinking in the poetry of Kavсар Turdiyeva, the skill of creating a lyrical hero typical of children. An analysis of his poems about word groups is presented. Poet's works as a vivid example of expressing scientific thinking with artistic thinking models.

Keywords: children's literature, thinking, mother tongue grammar, scientific poems, figurative descriptions

Inson ma'naviyatining nechog'ligi uning tilga bo'lgan e'tibori bilan ham o'lchanadi. Kavсар Turdiyeva ijodida bolalar tafakkurini boyitish uchun xizmat qilgan bir qator til haqidagi she'rlari borki, ular muallifning ona tili grammatikasini chuqur bilishi bilan barobar zarur bilimni o'quvchiga obrazli yetkaza olishga qodir mohir pedagog sifatida ko'rsata oladi. O'zbek she'riyatida ilmiy she'rlar tajribasi mavjud. Ammo bolalar adabiyotiga ilmiy she'riyatni tatbiq qilgan shoirlar orasida Kavсар Turdiyeva asarlari ilmiy tafakkurni badiiy tafakkur andozalari bilan ifodalashi nuqtayi nazaridan alohida hodisadir. 5-6-sinf "Ona tili" darsligida o'tiladigan mavzular asosida "Kelishiklarda turlanish", "Antonim", "O'z va ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni ajrating", "Sinonim", "Omonim", "Sifatdosh", "Sifat", "Fe'l", "Ot", "Olmosh", Ravish", "Son", "Harakat nomi" kabi she'rlar o'zining yengil hazil-mutoyibaga moyilligi, ilmiy asoslangani, muhimi, obrazli topilmalar, quvnoq sifatlashlar, jumboqda yechimning aks etishi kabi bir qator fazilatlar bilan o'quvchini e'tiborini tortadi. She'rlarni o'qish jarayonida har bir nazariy ma'lumot

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

jonli obrazga aylanadi, o‘z-o‘zini ta’riflaydi, bir qadar quvnoq, samimiy misralar o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi:

“Fe’l” bo‘lmasa bo‘lmaydi,
Bu dunyoda baraka.
Axir fe’lning asosiy
Belgisidir harakat”. (**“Fe’l”**).

Bu o‘rinda muallif “harakatda baraka” degan maqolga ishora qilayotganini sezish qiyin emas. O‘quvchi she’rni o‘qish davomida fe’l so‘z turkumining xususiyatlarini qayta yodga oladi.

Hikoya fe’li doim
So‘zlagandek hikoya.
Bo‘libdi, yuribdi deb,
Gapi bilmas nihoya.
Davom fe’li ishlarda
Davomiylik ko‘zlaydi,
“Qilar edim”, “borardim”,
Deb yalinib bo‘zlaydi.

Fe’l zamonlarining o‘z-o‘zini “fosh” etishi, ya’ni birining sergapligi, boshqasining “yalinib bo‘zlab” turishi o‘quvchida mavzuga boshqa bir rakurs bilan ham qarash mumkinligini o‘rgatadi. Fanni o‘zlashtirishda obrazli xayolot olamini ishga solish fanni ko‘zlanganidan osonroq o‘zlashtirish mumkinligiga ishontiradi.

Shoiraning “Olmosh” deb nomlangan she’ri ham yumorga boy, obrazli ta’riflar olmosh turlarining xususiyatlarini yarq etib ochib yuborgani bilan esda qolarli. Ayniqsa turkumlarning yosh darajasi bilan o‘rinlashuvi muallifning topilmasidir:

Sondan ulug‘, otdan yosh,
Uning nomidir “Olmosh”.
Men, sen, u, biz, siz, ular –
Kishilik olmosh bo‘lar.

She’r davomida ko‘zoynakdek doim “o‘z so‘zini taqib olgan” o‘zlik olmoshi, “fitnachi” gumon olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshining “qosh chimirib” turishi-yu, “qo‘lini bigizdek” qilib turuvchi ko‘rsatish olmoshigacha jonli qiyofa kasb etadi.

Bir olmosh bor o‘ziga
O‘zi juda yoqadi.
Ko‘zoynakdek har doim,
“O‘z” so‘zini taqadi...
Kimdir, nimalarnidir,
Allakim juda yomon,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Noaniqlik kiritar,
Fitnachi Olmosh Gumon (“*Olmosh*”)

So‘z turkumlarining alomat tabiatlari shoironing “Ravish”, “Son”, “Harakat nomi” kabi she‘rlarida ham ifodalangan:

Sizga aytsam sifatga
O‘xshab ketar ravish ham.
Sifat bilan adashib
Keltiradi tashvish ham. (“*Ravish*”)

Ravish keltirgan “tashvish” o‘quvchining ham sifat va ravish orasidagi o‘xshash belgilardan tashvishga tushishi mumkinligiga ishora qilar ekan, ayni paytda, mana shu tashvishni chekayotgan bolani tasavvur qilish uchun imkoniyat yaratadi. Muallif mavzuning yechimini berish bilan bir qatorda o‘quvchini yana boshqa jumboqqa ro‘para qiladi:

Bildiradi sifatdek,
U ham turli belgilar.
Faqatgina bu belgi
Harakatni belgilar.

She‘rni o‘qish asnosida o‘quvchi “belgilar” so‘zining omonimligiga e‘tibor qaratishi, ayni vaqtda so‘zning o‘zak va qo‘shimchalariga oid avvalgi mavzularda olgan bilimlarini ham yodga tushirishga majbur qiladi. Shu tariqa fe‘lga har taraflama bog‘liq ravishning bir o‘zi “to‘mtoq” bo‘lib qolishi, fe‘l bilangina unga “o‘rtoq”ligi ayon bo‘ladi. Ammo u “chaqmacha qar o‘rtoq”ga o‘xshatiladi. Bu o‘rinda muallif topilmasi mubolag‘adan holi ekanligi keyingi misralarda ayon bo‘ladi:

Chaqmacha qar o‘rtoqdek
Ishi juda g‘alati.
Aytib turar u fe‘lning
O‘rin, payti, holatin. (“*Ravish*”)

Ma‘lum bo‘ladiki, uning “chaqmacha qar”ligi fe‘lning turli holatini ifodalab turganida ekan. Shoira grammatik she‘rlariga o‘ziga xos obrazli yondashuvi bilan mavzuning chuqur nazariy mohiyatini ochib beradi va bu topilmalar bolada mavzuga nisbatan qiziqishini orttiradi.

Kavsar Turdiyeva alifbo harflaridan foydalanib o‘nlab she‘rlar yaratgan. Bu she‘rlar sirasiga “Bo‘ling harfga hurmatda”, “Sharadalar”, “A” harfi qilsa o‘yin”, “Harflar ustaxonasi”, “M”, “A” kelsa yonma-yon”, “Sinf to‘ldi asirga”, “Endi a‘lo olaman”, “Qofiyali topishmoqlar”, “Harflar she‘r yozishgani haqida”, “Manman “B”, “Biz shunaqa bolamiz”, “Sehrlil harflar oroli”, “D” o‘xshaydi Ilhomga”, “Alifbeda nasihat”, “Topishmoqli alifbe” kabi she‘rlarini kiritish mumkin.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Alifbo asosidagi she’rlarning salmog‘iyoq muallifning har bir harfga munosabati, e’tibori, ulardan ko‘zlangan maqsad, alaloqibat, bu harflarni tilga kiritish, ularni so‘zlatish asnosida millat bolasining kelajagiga bo‘lgan yoniq munosabatini payqash qiyin emas.

Alifbeda nechta harf,
O‘yla, aqling qilib sarf.
Go‘yo ko‘zi, burni bor,
Har bir harfning o‘rni bor.
Har bir harf buyuk erur,
Har biri juda zarur. (*“Bo‘ling harfga hurmatda”*)

Harflarni odam shaklida tasvirlash bolaning harf shakllariga nisbatan qiziqishini uyg‘otishi shubhasiz. Bola har qanday narsani o‘zi bilgan, ko‘rgan narsalarga taqqoslashni yaxshi ko‘radi. Shundan zavq oladi, o‘z navbatida shu zavqni o‘zgalarga ham ulashishga intiladi. Shu ma’noda harflarning “ko‘zi”, “burni” bo‘lishi ham bola tasavvur olamini boyitishga xizmat qiladi. Bolalarga yozilgan asarlarda didaktik vazifa ustuvorlik qiladi. Maqsad ham ochiq aytiladi, masala va dalillar ham aniq ifoda etiladi.

Bitta harf o‘zgarsa ko‘r,
“Kar” to‘satdan bo‘lar “ko‘r”...
“B” harfsiz gavjum “bozor”,
Keltirar dilga “ozor” (*“Bo‘ling harfga hurmatda”*).

Bir harf bilan ma’nosi o‘zgaradigan so‘zlarga ishora o‘laroq yozilgan she’rlar keyingi yillar bolalar she’riyatiga xos bo‘lib bormoqda. Bu holni Dilshod Rajab ijodida ham uchratish mumkin. Harflarga e’tibor berilishi natijasida bolaning so‘z boyligini oshirishga, so‘zga munosabatni o‘zgartirishga, so‘z ustida ishlashga e’tiborining orttirilayotgani, bu kabi asarlarning maktab darsliklariga ham kiritilayotgani o‘z samarasini bermoqda. Kavsar Turdiyeva ijodida ham topishmoq tipidagi “Sharadalar” borki, bu bir tomondan, so‘z bilan ma’nosi almashib ketuvchi paronim so‘zlarga bag‘ishlangan she’rlar hisoblansa, ikkinchi tomondan, mumtoz she’riyatimizdagi muammo janrini yodga tushiradi.

U uylarga solinar,
Har yoz yuvib olinar.
So‘nggi harf o‘zargan chog‘,
Kerakdir, qozon, o‘choq.
Yog‘ masalliq solinar,
Pishgach suzib olinar. (*“Palos (Palov)”*)

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Uni uyquda ko‘rib,
So‘ngra eslaysan turib,
Harf o‘zgargach u behos
Qanot-la qilar parvoz (*“Qush (Tush)”*).

Inson a‘zosi bu so‘z,
Unga yaqin qosh va ko‘z.
Harf o‘zgarsa shoshadi,
Chashma suvi toshadi (*“Buloq (Quloq)”*)

Kavsar Turdiyeva sharadalarini muayyan so‘zga joziba bag‘ishlashi, uni turli sifatlar bilan o‘quvchiga tanishtirishi va qofiyadosh so‘zlarning turli ma‘nolarini jonlantirish orqali bola tasavvur olamiga turtki berayotgani bilan ahamiyatlidir.

Shoiraning harf shakllaridan foydalanib quyma obrazlar yaratgani “D” o‘xshaydi Ilhomga” she’rida bo‘rtib ko‘ringan. She’r qahramoni dabdurustdan ko‘zga tashlanmaydi, ammo sarlavha bola tabiatiga xos solishtirish va undan zavqlanish kabi tuyg‘uni o‘quvchiga yuqtiradi. Sarlavhadagi jumboq ham she’rni o‘qish jarayonida o‘z sirini ocha boradi:

Avval bekor yurgandim,
Hozir harflar o‘rgandim.
Harflar narsaga o‘xshar,
“O” dumaloq go‘yo shar,
“N” o‘xshaydi narvonga,
“L” ilingan javonga.
“S” o‘xshaydi oqqushga,
“V” qanot yozgan qushga.
“A” o‘xshab ketar tomga,
“D” o‘xshaydi Ilhomga.
Yurar qaddin qilib dol,
Go‘yo yuz yasharli chol.

Garchi harflarni o‘rganish bolani bekorchilikdan xalos qilgan bo‘lsa ham, bu hali she’r uchun muhim g‘oya ham, yechim ham emasligi anglashilib turadi. Muallif o‘quvchini boshdan oxirigacha she’rga bola nigohi bilan qarashga majbur qilar ean, boladagi sinchkovlikni kitobxonga ham yuqtiradi. Oxir-oqibat bolaning obrazli topilmasi kitobxonga huzur bag‘ishlaydi. Bolalar adabiyotida kitobxon oladigan estetik lazzat ham asli kutilmagan obrazli topilmadir.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Kavsar Turdiyeva bolalar adabiyotining katta vakili. Ilmiy tadqiqotlar olib borishga loyiq salmoqli ijodiy merosga ega ijodkor. Bir-ikki maqolalar yoki dissertatsiyalarda qisman o‘rganilganligi uning ijodiyoti haqida to‘la tasavvur bermaydi. Shu ma’noda ijodkor poetik olami, asarlari badiiyati, umuman ijodi bo‘yicha monografik tadqiqotlar olib zarur. Kavsar Turdiyeva asarlarini bosqichlarga bo‘lib o‘rganish davr bolalar adabiyoti xususidagi qarashlarni boyitadi, va bu adabiyotni xolis baholash imkoniga ega qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘razbayeva M. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi nomli ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent. 2024 -yil.
2. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
4. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
5. 5.Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
6. 6.Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
7. Pardayeva Nigora. BILINGUALPOET – ANBAR OTIN. Aktualnoye v filologii. № 3 2021/6/11
8. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
9. Omanova M.A., Yakubov I.A. The place of traditional motives and symbols in the plot and composition of national novels // Journal of critical reviews. Malaysiya. 2020. - P. 2903-2910.
10. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SBİN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
11. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.20 (2024): 68-78.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

12. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
13. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.
14. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
15. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.